

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»

Ekspert kengashi raisi

t.f.d., professor




M.M.Madazimov

« 31 » 08 2023 y.

G.J.Ulug‘bekova , Sh.A.Adhamov

**ANDIJON VILOYATI IZBOSKAN TUMANI SHAROITIDA
YASHOVCHI 7-12 YOSHDAGI BOLALARING KRANIOMETRIK
KO‘RSATKICHLARI**

(Monografiya)



Andijon -2023 y.

UO‘K: 616-053.2(575.122)

KBK: 57.3(50‘)

U-45

Mualliflar:

Ulug‘bekova

Andijon davlat tibbiyot instituti Anatomiya va klinik

Gulruk

anatomiya kafedrasи dotsenti, t.f.n.

Jo‘rayevna

Adhamov

Andijon davlat tibbiyot instituti

Shohjahon

Pediatriya fakulteti talabasi

Abdullajon o‘g‘li

Taqrizchilar:

Madaminov

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Sodiq

Anatomiya kafedrasи mudiri, dotsent, t.f.n.

Madaminovich

Abdug‘ofur

Andijon davlat tibbiyot instituti

Ne’matovich

Normal fiziologiya kafedrasи dotsenti, t.f.n.

Qodirov

Monografiya Andijon davlat tibbiyot instituti Ekspert kengashi tomonidan 2023-yil 31 –avgustda 6 -son bayon bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan

Ekspert kengash kotibi

t.f.n., dotsent

G.N.Mamatxujayeva

ISBN 978-9910-9959-1-0

© G.J.ULUG‘BEKOVA,
Sh.A.ADHAMOV. 2023 yil.
© “Andijon nashriyot-matbaa”
MCHJ, 2023 yil.

ANNOTATSIYA

Ushbu monografiyada bolalar va o'smirlar jismoniy o'sish va rivojlanishini baholashning ustuvor yo'nalishi hisoblangan antropometrik o'lhashlar, xususan kraniometrik tadqiqotlarning profilaktik tibbiyotdagi o'rni, maqsad va vazifalari, bugungi davr tibbiyotidagi rivojlanish istiqbollari xususida yoritilgan.

Monografiyada kraniometriyaning o'lhash uslublari, o'lhash sohalari tavsifi, kraniometriya bo'yicha ilmiy tadqiqot va kuzatishlar olib borgan mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning kraniometriyaga oid ilmiy-amaliy fikr va xuloslari tahlil etilgan.

Monografiyada mualliflar tomonidan Andijon viloyatining Izboskan tumanida yashovchi 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'tkazilgan kraniometrik o'lhashlar natijalari, ko'rsatkichlarni o'sish va rivojlanish jarayonida yoshga va jinsga mos xususiyatlari, intensiv o'sish davrlari haqida bayon qilingan.

Bolalar salomatligi saqlashda profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, ularning jismoniy o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini muntazam kuzatib, baholab borish muhim ahamiyatga egadir.

Jismoniy rivojlanishni ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda o'rganish aholi salomatligini baholashning nisbatan ob'ektiv va yagona ko'rsatkichi hisoblanadi. Antropometrik ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali bolalar va o'smirlarning jismoniy o'sish va rivojlanish jarayonlarini qay yo'sinda kechayotganligini bilish mumkin.

Kichik mакtab yoshidagi bolalardan olingan kraniometrik ko'rsatkichlardan odam anatomiysi, topografik anatomiya, jarrohlik stomatologiyasi, ortopedik stomatologiya, ortodontiya, bolalar stomatologiyasi, pediatriya, sud tibbiyoti kafedralarida olib boriladigan o'quv jarayonlarida, shuningdek amaliy mashg'ulot va ma'ruza materiallarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Olingan natijalar postnatal ontogenetda kichik mакtab yoshidagi bolalar kallasi kraniometrik ko'rsatkichlarining yoshga oid xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarimizni to'ldiradi.

АННОТАЦИЯ

В данной монографии рассмотрены роль, антропометрических измерений, в частности, краниометрических исследований, которые считаются приоритетными для оценки физического роста и развития детей и подростков, в профилактической медицине, а также перспективы развития в современной медицине освещаются.

В монографии проанализированы методы измерения краниометрии, описание измерительных полей, научно-практические мнения и выводы краниометров отечественных и зарубежных исследователей, проводивших научные исследования и наблюдения по краниометрии.

В монографии авторы описывают результаты краниометрических измерений детей в возрасте от 7 до 12 лет, проживающих в Избосканском районе Андиканской области, возрастно-половые характеристики показателей в процессе роста и развития, периоды интенсивного роста. .

Важно проводить профилактические мероприятия по сохранению здоровья детей, регулярно контролировать и оценивать показатели их физического роста и развития.

Изучение физического развития на основе научных исследований является относительно объективным и уникальным показателем оценки здоровья населения. Через анализ антропометрических показателей можно узнать, в каком направлении идут процессы физического роста и развития детей и подростков.

Можно использовать краниометрические показатели, полученных у детей младшего школьного возраста, в учебных процессах, проводимых на кафедрах анатомии человека, топографической анатомии, хирургической стоматологии, ортопедической стоматологии, ортодонтии, детской стоматологии, педиатрии, судебной медицины, а также можно включить для лекционных материалах.

Полученные результаты дополняют наши представления о возрастных особенностях краниометрических показателей головы детей младшего школьного возраста в постнатальном онтогенезе.

ANNOTATION

In this monograph, the role, goals and tasks of anthropometric measurements, in particular, craniometric studies, which are considered to be the priority for assessing the physical growth and development of children and adolescents, in preventive medicine, as well as the prospects for development in modern medicine are covered.

In the monograph, the methods of measuring craniometry, the description of measuring fields, the scientific and practical opinions and conclusions of craniometry of local and foreign researchers who conducted scientific research and observations on craniometry are analyzed.

In the monograph, the authors describe the results of craniometric measurements of children aged 7 to 12 years living in the Izboskan district of Andijan region, age- and gender-appropriate characteristics of indicators in the process of growth and development, and periods of intensive growth.

It is important to carry out preventive measures in maintaining children's health, to regularly monitor and evaluate their physical growth and development indicators.

Studying physical development based on scientific research is a relatively objective and unique indicator of population health assessment. Through the analysis of anthropometric indicators, it is possible to know in what direction the physical growth and development processes of children and adolescents are going.

The use of craniometric indicators obtained from children of small school age in the educational processes conducted in the departments of human anatomy, topographic anatomy, surgical dentistry, orthopedic dentistry, orthodontics, children's dentistry, pediatrics, forensic medicine, as well as in the preparation of practical training and lecture materials possible

The obtained results complement our knowledge about the age-related characteristics of the craniometric indicators of the heads of children of junior school age in postnatal ontogeny.

M U N D A R I J A

Kirish	7
I bob. Adabiyotlar sharhi	14
1.1. Kraniometrik tekshiruvlar va ularning hozirgi kundagi ahamiyati	14
1.2. Kalla suyaklarining taraqqiyoti	23
1.3. Kalla suyagining umumiy morfologik xususiyatlari	27
1.4. Kalla suyaklarining jinsiy va individual tafovutlari	30
I bob bo‘yicha xulosa	32
II bob. Kraniometrik tadqiqot materiallari va uslublari	33
Kraniometrik indekslar	57
II bob bo‘yicha xulosa	61
III bob. Kraniometrik tadqiqot natijalari va ularning tahlili	62
III bob bo‘yicha xulosa	98
Xulosa	99
Amaliy tavsiyalar	100
Adabiyotlar ro‘yxati	101

K I R I SH

Mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, tibbiy xizmatlar sifatini va ko‘lamini yanada yaxshilash borasida qator say-harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026 – yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili ”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldaggi PF-27-sonli farmoni doirasida ham mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, aholi salomatligini mustahkamlashga oid qator istiqbolli vazifa va maqsadlarni amalga oshirish belgilab olindi. Jumladan aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yaqinlashtirish va fuqarolarni sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta’minalash, kasallikkarni erta bosqichda aniqlash, shuningdek, bemorlarga qo‘sishimcha qulayliklar yaratish, aholi orasida yuqumli bolmagan kasallikkarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va bolalarda jismoniy faoliyat darajasini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni keng ko‘lamda tashkil etish shular jumlasidandir.

Respublikamiz Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonining e’lon qilinishi mamlakatimizda onalar va bolalar salomatligini saqlash borasidagi qator islohotlarni amalga oshirilishiga muhim omil bo‘lmoqda.

So‘nggi besh yil davomida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat onalik va bolalikni tizimli ravishda muhofaza qilish imkonini yaratdi, natijada onalar va go‘daklar o‘limining kamayishiga erishildi.

Xususan ushbu farmonda reproduktiv yoshdag'i va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, perinatal markazlarni zarur tibbiy texnika va buyumlar bilan jihozlash, ularni malakali kadrlar bilan ta’minlash kabi ustuo'r vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi.

Jumladan, farmonda quyidagi qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

Shu bilan birga, olis hududlarda tibbiy yordamni maqsadli yo‘naltirish tizimini yuqori darajada tashkil etish, onalar va bolalarga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatning samaradorligini oshirish, ambulator yordamni yanada yaxshilash, shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish, tibbiy genetika hamda zamонавиј скрингинг дастурларини јоријатниш.

-sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inida onalar va bolalar o‘rtasida kasalliklar profilaktikasi, ularni barvaqt aniqlash va sog‘lomlashtirish dasturlarini amaliyotga јоријатниш, shu jumladan:

-sog‘lom farzand tug‘ilishi, rivojlanishi va tarbiyasi masalalari bo‘yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish, to‘g‘ri ovqatlanish hamda jismoniy faoliytkni oshirishni targ‘ib etish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish;

-bolalar, homilador hamda emizikli ayollarni vitamin va minerallar bilan bepul ta’minlash hamda maqsadli skrining tadbirlari orqali kasalliklarning samarali profilaktikasini olib borish;

-2022-2026 yillarda onalar va bolalar uchun tibbiy xizmat ko‘rsatiladigan ob’ektlarni rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

-diagnostika va davolashning yuqori texnologiyali hamda innovatsion usullarini amaliyotga јоријатниш hamda soha xodimlarining ilmiy salohiyatini muntazam oshirib borish.

Respublikamiz aholisi, xususan bolalar salomatligini saqlash, mustahkamlashda ularning jismoniy o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash muhim o'rinni tutadi.

Respublikamizning ijtimoiy sohadagi dasturlarini amalga oshirishda faol ishtirok etish, sog'lom avlodni tarbiyalash, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lgan ma'naviy boy, axloqiy etuk, intellektual rivojlangan, jismoniy sog'lom, barkamol shaxsni shakllantirish, ona va bola sog'lig'ini muhofaza qilish davlatimizning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Jismoniy rivojlanishni ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda o'rganish aholi salomatligini baholashning nisbatan ob'ektiv va yagona ko'rsatkichi hisoblanadi. Bolalarni sportning ma'lum bir turiga yo'naltirishda ularning o'ziga xos antropometrik va yoshga bog'liq individual xususiyatlarini hisobga olish asosiy talablardan biridir.

Hozirgi kunga kelib, mamlakatimizda o'rganilgan ekologik, geografik va yoshga bog'liq antropometriyaga oid bajarilgan ilmiy tadqiqotlar jismonan baquvvat farzandlarni voyaga yetkazish va ularni barkamol qilib tarbiyalashni ta'minlash loyihalari va tadbirlarini amalga oshirishga to'liq ko'maklashish uchun yetarli emas. Buning oqibatida bolalarni jismoniy taraqqiyotini va ularning antropometrik xususiyatlarini baholashda, jismoniy rivojlanishning yangi standartlarini ishlab chiqishda biz hali hanuzgacha chet el olimlari tomonidan qilingan ilmiy tadqiqotlarning natijalariga tayanmoqdamiz.

Sport tibbiyoti sohasida fundamental, amaliy va innovatsiya ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, sport patologiyasining oldini olish va davolashning ilg'or uslublari, yo'l qo'yilgan jismoniy yuklamalar, sport turining xususiyatlarini hisobga olgan holda sportchilarining diagnostika va funksional holatini yaxshilash standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, musobaqalarga tayyorlashda sportchilarni kuzatib borishda ham antropometrik ko'rsatkichlarning o'rni beqiyosdir.

Bolalarda antropometrik ma'lumotlar, funksional imkoniyatlar va salomatlikdagi nuqsonlarni aniqlash xamda tavsiflash uchun, ushbu bolalar yashayotgan geografik zonadan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan antropometrik standartlardan foydalanish lozim. Ammo Andijon viloyatining Izboskan tumani sharoitida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarda kraniometrik tekshiruvlar o'tkazilgan ilmiy ishlar adabiyotlarda juda kam.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, o'ziga xos geografik zona bo'lgan Izboskan tumanida yashovchi bolalarning jismoniy rivojlanishini o'rghanish ham nazariy, ham amaliy axamiyatga egadir. Bu yo'nalishda kichik maktab yoshidagi bolalarda antropometrik ko'rsatkichlarining o'zgarishlarini o'rghanish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kraniometrik o'lchovlarni amalga oshirishda ob'ekt sifatida Izboskan tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 7- va 41-umumta'lim mакtablarida ta'lim olayotgan 1-6 sinfdagi (7-12 yosh) jismoniy va aqliy jihatdan har tomonlama sog'lom 360 nafar o'g'il va qiz bolalar olindi.

Kraniometriyada Izboskan tumani sharoitida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning kraniometrik ko'rsatkichlari o'rghanildi.

Kraniometrik o'lchovlarni o'tkazishdan maqsad Andijon viloyati Izboskan tumani sharoitida yashaydigan kichik maktab yoshidagi bolalar kalla va bosh qismlarining shakllanish muddatlari xamda o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rghanish.

-Izboskan tumani sharoitida yashaydigan kichik maktab yoshidagi bolalar kalla suyagi kraniometrik ko'rsatkichlarining o'sish jadalligini aniqlash.

-Kichik maktab yoshidagi bolalar kalla suyagining qismlari o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni aniqlash.

-Izboskan tumani sharoitida yashaydigan kichik maktab yoshidagi bolalar kalla suyagining takomillashuvida morfologik belgilarni nisbatan intensiv rivojlanish davrlarini aniqlash.

-Izboskan tumani sharoitida yashaydigan kichik maktab yoshidagi o'g'il va qiz bolalarning kraniometrik ko'rsatkichlari orasidagi jinsiy tafovutlarni aniqlash.

Kraniometriyaning masalalari va farazlari:

Andijon viloyati Izboskan tumani sharoitida yashaydigan kichik maktab yoshidagi bolalar kalla suyagi kraniometrik ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasi.

Izboskan tumani sharoitida yashaydigan kichik maktab yoshidagi bolalar kalla suyagi taraqqiyotining jadal va sust kechadigan rivojlanish davrlari.

Izboskan tumani sharoitida yashaydigan kichik maktab yoshidagi bolalar kraniometrik ko'rsatkichlarining boshqa geografik zonalarda yashaydigan kichik maktab yoshidagi bolalar kraniometrik ko'rsatkichlari bilan taqposiy xususiyatlari.

Antropometrik belgilar organizmning o'sish va rivojlanish jarayonlarini ob'ektiv tarzda o'zida namoyon qilib, aniq bir bosqichda bu jarayonlarni darjasini, yo'nalishi va qonuniyatlarini muhokama qilishga yordam beradi. Shuning uchun antropometrik belgilar tibbiy-klinik, ijtimoiy-gigienik va antropometrik baholashda katta ahamiyatga ega (Sattibaev I.I., 1998).

Yoshga bog'liq antropologiya ma'lum bir muhitda joylashgan odam tanasidagi o'sish va rivojlanish jarayonlarini o'rganadi. Turli xil geografik zonalarda, shuningdek har xil sharoitlarda yashaydigan bolalardagi o'sish jarayonlarini antropologik jihatdan o'rganish odam ekologiyasi va tibbiy geografiyaning muammolarini echishda muxim ahamiyatga ega (Kaznacheev V.P.1980, 1983; Grishanov D.L. va boshqalar, 1998).

Ayrim mualliflarning (F.F. Rappoport va E.I. Praxina, 1970) fikricha, boshning me'yoriy ko'rsatkichlari to'g'risidagi bilimlar bolalar kasalliklari va akusherlik klinikalarida juda ham zarur. Chunki boshning o'lchamlariga qarab bolalardagi bir qancha kasalliklarga tashxis qo'yish mumkin.

Kraniometriyaning maqsadi faqatgina kallaning mutloq o'lchamlarini sonlar bilan izohlash bo'libgina qolmay, balki kalla qismlarining o'lchamlari orasidagi nisbatni aniqlash, kallaning umumiyligi shakliga yoki uning ma'lum bir qismlariga matematik aniq izoh berish va ushbu tahlillarni son o'lchamlarida izohlashdan iborat (P.Broka, 1879).

Andijon viloyatining turli joylarida yashaydigan har xil yoshdagি bolalarning jismoniy rivojlanishiga oid bir nechta ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bulardan: “Физическое развитие детей, посещающих детские сады г. Андижана” (N.V. Jdanova-Jukovskiy, 1965), Морфологические и функциональные проявления полового созревания и физической дееспособности детей и подростков узбекской национальности” (G.A. Bazunsev, 1972), “Антропометрические показатели у детей школьного возраста” (M.B. Ibragimov, O.S. Toshbaev, N.N. Chukanin va K.I. Turgunov, 1991), “Физическое развитие детей дошкольного возраста, проживающих в условиях г. Андижана” (I.I. Sattibaev ,1998), “Андижон вилояти Андижон тумани шароитида яшайдиган кичик мактаб ёшидаги болаларнинг краниометрик кўрсаткичлари” (A.I.Xatamov, R.R.Raimjonov, 2014), “Андижон вилояти Асака тумани шароитида яшайдиган урта мактаб ёшидаги болаларнинг краниометрик кўрсаткичлари” (A.I.Xatamov, A.A.Ataxonov, 2015).

Kraniometrik o‘lchashlarni amalga oshirishda quyidagi ketma-ketlikdagi usullar bajarildi:

- 1) ob’ekt tanlab olindi;
- 2) tanlab oliingan bolalarning kraniometrik ko‘rsatkichlari o‘lchandi;
- 3) olingan ma’lumotlar asosida kraniometrik indekslar maxsus formulalar yordamida hisoblab chiqildi;
- 4) kraniometrik o‘lchashlarda olingan barcha raqamli ko‘rsatkichlar variatsion statistika usullari (A.M. Merkov, A.E. Polyakov, 1974) yordamida qayta ishlandi;
- 5) olingan barcha ma’lumotlar yig‘ildi va jamlandi, tahlil qilindi.

Kichik maktab yoshidagi bolalardan olingan kraniometrik ko‘rsatkichlardan odam anatomiysi, topografik anatomiya, jarrohlik stomatologiyasi, ortopedik stomatologiya, ortodontiya, bolalar stomatologiyasi, pediatriya, sud tibbiyoti kafedralarida olib boriladigan o‘quv jarayonlarida, shuningdek amaliy mashg‘ulot va ma’ruza materiallarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Olingan natijalar postnatal ontogenetika kichik maktab yoshidagi bolalar kallasi kraniometrik ko'rsatkichlarining yoshga oid xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarimizni to'ldiradi.

Olingan kraniometrik ko'rsatkichlarni yuz-jag' rekonstruktiv plastik jarroxligida, sud-tibbiy ekspertiza amaliyotida, jismoniy rivojlanishning yangi standartlarini ishlab chiqishda, yuz-jag' sohasi protezlarini ishlab chiqarish va yuz-jag' sohasini protezlashda, bosh kiyimlarini ishlab chiqarishda yangi standartlarni yaratish va odamlar orasidagi irqiy, etnik va populyatsion tafovutlarni o'rganishda qo'llash mumkin.

Ushbu tadqiqot Izboskan tumani sharoitida yashaydigan kichik maktab yoshidagi bolalar ustida yoshga bog'liq kraniologiya yo'nalishida olib borilayotgan dastlabki ilmiy tadqiqot.

Monografiya kirish qismi va uchta bobdan iborat: adabiyotlar sharhi, kraniometrik tadqiqotning materiallari va uslublari, kraniometrik tadqiqot natijalari va ularning tahlili hamda har bir bob o'zinig xulosasi, shuningdek alohida umumiy xulosalardan iborat. Monografiya tarkibiga 30 ta jadval, 26 ta diagramma, 12 ta rasm va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kiradi.

I – BOB

ADABIYOTLAR SHARHI

1.1. Kraniometrik tekshiruvlar va ularning ahamiyati

Antropometrik o'lchashlarni kalla suyagining o'zida, shuningdek, tirik odamda ham o'tkazish mumkin. To'g'ri, tirik odamda yuz yumshoq to'qimalarining mavjudligi hisobiga qisman og'ish bo'lishi mumkin. Lekin asosiysi shundaki, bu usul kalla suyagining ma'lum bir vaqt oralig'ida o'sish darajasini o'lhash imkonini beradi (U.R. Proffit, 2006).

Antropologik usullarning asosida antropometriya, ya'ni odam tanasining o'lchamlarini aniqlash yotadi. Tekshiruv ob'ektiga qarab antropometriyanı 3 ta qismga bulish mumkin:

- 1) somatometriya – tirik odamni o'lhash;
- 2) osteometriya – skelet suyaklarini o'lhash;
- 3) kraniometriya – kalla suyagini o'lhash.

Tarixning turli davrlarida antropometriyadan keng foydalanib kelinganligi bizgacha yetib kelgan manbalardan ma'lum. Antropometriya va antroposkopiya biologik va sud antropologiyasida eng muhim tadqiqot vositalari yo'nalishlaridan biri hisoblangan. Kuzatish va ma'lumotlarni yig'ishning bu ikki usuli ham tirik odam, ham skeletlangan odam qoldiqlarida amalga oshirilib kelingan.

Tadqiqot vositalari sifatida ular insonning irqi, jinsi va tana o'lchamlari, masalan, bo'yи bo'yicha o'zgaruvchanligini tahlil qilishgan. Ushbu tadqiqot yo'nalishlari jinsiy dimorfizmni tavsiflovchi o'lchovlar va morfologik xususiyatlarni, shuningdek, ijtimoiy va jismoniy atrof-muhit omillari yoki oddiygina evolyutsion mexanizmlar, masalan, tanlov natijasida yuzaga kelgan jinslar o'rtasidagi farqlarni tushuntirib o'tgan.

Tayanch-harakat tizimining o'sishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar bolalar antropometriyasiga asoslangan. Masalan, bolada Daun sindromini keltirib chiqaradigan xromosoma mutatsiyasi bor-yo'qligini prognoz qilingan.

Antropometriya tarixi kraniometriya, paleoantropologiya, biologik antropologiya, frenologiya, fiziognomiya, kriminalistika, kriminologiya, filogeografiya, inson kelib chiqishi va kranio-yuz tavsifi, shuningdek, turli xil korrelyatsiyalar kabi o'z ichiga oladi va qamrab oladi.

Antopometriyaning paydo bo'lishi 19-asrga to'g'ri keladi va fransuz antropologi P. Broka nomi bilan bog'liq, uning keyingi rivojlanishiga R. Martin va antropologlar: V. V. Bunak va A. I. Yarxo katta hissa qo'shdilar. Birinchisi antropologik asboblar (antropometr, sirkul, o'lchov tasmalari...) yordamida aniqlangan. O'lchovlar ma'lum bir antropometrik nuqtalar o'rtasida amalga oshiriladi. Umumiy (tana uzunligi, vazni, ko'krak qafasi aylanasi, bosh aylanasi) va shaxsiy (oyoq va qo'lning uzunligi, aylanasi, har bir barmoq uzunligi, yuz qism o'lchovlari, va boshqalar) tana o'lchamlari mavjud. Bundan tashqari shaxsni tafsiflovchi xususiyatlarni aniqlash (tana qismlarining shakllari, teri pigmentatsiyasi, soch va ko'zlar rangi, soch shakli va boshqalar) aniq chegaralangan mezonlar asosida shakllantirilgan o'lchovlar asboblari, mulyajlar, sxemalar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, V.V.Bunak ko'z rangi shkalasi uchun 12 xil rang variantini, Fisher-Zaller soch rangi shkalasi uchun - 40 ta rangni hisobga oladi. Bundan tashqari antopometriyada antropologik suratga olish usullari keng qo'llaniladi. Antropometrik ko'rsatkichlarni tafsiflovchi zamonaviy tahlil usullari (rentgen, ultratovush tekshiruvi) joriy etilgan. Irqshunoslik va etnik antropologiyada bosh, yuz, bosh suyagi, tana uzunligi o'lchanadi, irqiy tiplarni farqlash uchun ko'z, teri, soch va boshqalar rang shkalasi qo'llaniladi.

Inson morfologiyasida va ayniqlasa, jismoniy rivojlanish darajasini aniqlashda tana massasi, tana uzunligi (bo'yi) va boshqa bo'ylama, ko'ndalang va aylana o'lchovlari hisobga olinadi. Ularning asosida odamlar va aholining turli guruhlarida jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beruvchi standart shkalalar yaratilgan.

Antropometrik tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar statistik (biometrik) ishlov berishdan o'tkaziladi. Antropometriya klinik amaliyotda, sud

tibbiyotida (yoshni tekshirish uchun), akusherlikda (ayolning tos suyagi hajmini, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning etuklik darajasini aniqlashda), pediatriyada (bolalar jismoniy rivojlanishini nazorat qilish uchun) va gigienada (bolalar, maktabda) qo'llaniladi. , professional va boshqalar).

Antropometrik ma'lumotlar harbiy xizmatga yaroqliliginin baholash, kiyim-kechak, poyabzallarni standartlashtirish, ish joylarini oqilona tashkil etish, turli ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa tadbirdarning aholining jismoniy rivojlanishi va salomatligiga ta'sirini baholashda keng qo'llaniladi. Shunga muvofiq, ommaviy ishlab chiqarilgan buyumlarni (kiyim-kechak, poyabzal) standartlashtirish va ish joylarini oqilona joylashtirish ham antropometrik ma'lumotlarga asoslanadi.

Dunyoda bosh suyagi va boshning shakli mavzusida ko'plab nashrlar mavjud. Kraniometriya va kranioskopiya inson bosh suyagini o'rganishning asosiy usullari hisoblanadi.

Kraniometriya - bosh suyagi va uning qismlarini o'lhash. Bosh suyagi shaklining xususiyatlarini birinchi bo'lib tasvirlashni boshlagan Leonardo da Vinci bo'lib, hisoblash uchun ma'lum ko'rsatkichlar olinadi.

Antropometriya – bolaning jismoniy rivojlanganligini tanasini o'lhash yo'li bilan aniqlashdir. Hamshira bo'y va ko'krak aylanasini o'lchaydi. Eng oddiy antropometrik tekshirishlarni ham tibbiyot hamshiralari (statsionarlarda, poliklinikalarda, sanatoriyalarda, dam olish uylarida) o'tkazadilar.

Bolaning bo'yini o'lhash:

1. Qo'llar yuvib, quritiladi.
2. Tayyorlab qo'yiladi: bo'y o'lchagich, xlorli ohakning 1% li eritmasi, 96% li spirt.
3. Bolaga oyoq kiyimini yechish taklif qilinadi.
4. Bo'y o'lchagichning plankasi shkala bo'yicha yuqoriga ko'tariladi.
5. Bolani 4 nuqtasi (tovonlari, dumbalari, kuraklari, ensasi)
bilan tegadigan qilib qo'yiladi.
6. Plankani ohista bemor boshigacha tushiriladi va shkalada belgi qoldiriladi.
7. Olingan natija kasallik tarixiga yozib qo'yiladi.

8. Bo'y o'lchagichga ishlov beriladi.

Yoshiga yetmagan bolalar uchun gorizontal rostometr (bo'y o'lchagich) qo'llaniladi. Bola boshi rostometrning bosh tomoniga zinch taqalib turadigan qilib yotqiziladi, bolaning boshini onasi yoki xodimlardan biror kishi shu holda ushlab turadi. Tibbiyot hamshirasi bolaning tizzalarini ohista bosib, oyoqlarini rostlaydi va shu vaqtda surma tagligini oyoq panjasiga surib keladi. Rostometrning shu tagligi bilan bosh tomoni orasidagi masofa bolaning bo'yini ko'rsatib beradi (biriktirib qo'yilgan santimetr lentasiga qarab aniqlanadi).

Tana og'irligini o'lhash:

1. Qo'llar yuvib, quritiladi.
2. Tayyorlab qo'yiladi: tarozi, xlorli ohakning 1% li eritmasi, 96 % li spirit.
3. Tarozidagi ilgak ochib qo'yiladi.
4. Tarozi sozlanadi.
5. Bolaga tarozi maydonchasi o'rtafiga turishni taklif qilinadi.
6. Tarozi sozlanadi.
7. Olingan natija kasallik tarixiga yozib qo'yiladi.
8. Tarozi maydonchasiga ishlov beriladi.

Go'dak bolalarni maxsus bolalar tarozisida, yaxshisi, emizishdan avvalgi ertalabki soatlarda tortiladi. Bolani tortilayotgan mahalda tagiga iliq yo'rgak solish, tarozining pallasini har kunisovunlab yuvib qo'yish va tarozining holati hamda ko'rsatishlarining to'g'riligini sinchiklab kuzatib borish kerak.

Ko'krak aylanasini o'lhash:

1. Qo'llar yuvib, quritiladi.
2. Tayyorlab qo'yiladi: santimetrali lenta, xlorli ohakning 1% li eritmasi, 96% li spirit.
3. Bolaga ust kiyimini yechish taklif qilinadi.
4. Santimetrali lentani olib orqadan kurak suyaklari ostidan, oldindan ko'krak bezining so'rg'ichlari orqali aylantiriladi.
5. Olingan natija kasallik tarixiga yozib qo'yiladi.
6. Santimetrali lentaga ishlov beriladi.

Bosh aylanasini o‘lchash:

1. Qo‘llar yuvib, quritiladi.
2. Tayyorlab qo‘yiladi: santimetrli lenta, xlorli ohakning 1% li eritmasi, 96% li spirt.
3. Bolaning bosh kiyimi yechiladi.
4. Santimetrli lenta bilan bola bosh aylanasi o‘lchanadi: orqadan ensa do‘ngliklari, oldindan qosh usti do‘ngliklari qamrab olinadi.
5. Olingan natija kasallik tarixiga yozib qo‘yiladi.
6. Santimetrli lentaga ishlov beriladi.

Bolaning jismoniy jihatdan o‘sishi haqida to‘g‘ri fikr yuritish uchun uning og‘irligi va bo‘yining o‘sishiga e’tibor berish zarur. Chunki gavdaning avjlanib o‘sish darajasi a’zo, hujayra va to‘qimalarning differensial takomillanishidan dalolat beradi. Bolaning bo‘yi juda muhim ahamiyatga ega, chunki organizmdagi murakkab rivojlanish jarayonlari ham shu bilan ifodalanadi.

Yetuk bo‘lib tug‘ilgan bolaning bo‘yi 46 smdan 56 smgacha bo‘ladi, o‘g‘il bola o‘rtacha- 50,7 sm, qiz bola o‘rtacha-50,2 sm.

Agar bolaning bo‘yi 45 smdan kam bolsa, u chala tug‘ilgan hisoblanadi. Emadigan bolaning bo‘yi oy sayin va chorakda uzayadi: birinchi 3 oyda 3 smdan har oyda yoki 9 sm birinchi chorak yilda, II chorakda-2,5 smdan ya’ni 7,5 sm chorakda, III chorakda 1,5-2 sm, IV chorakda 1 sm har oyda ya’ni chorakda 3 sm uzayadi.

Birinchi yilning oxiriga borib, uning bo‘yi 20-25 sm o‘sadi. Hayotning 4-yilida bolaning bo‘yi ikki baravar, 12 yoshda esa uch baravar uzayadi.

Bir yoshdan keyin bolaning o‘sish tezligi borgan sari kamaya boradi. Uning bo‘yi yiliga o‘rtacha 5-6 sm uzayadi. Bir yoshdan keyin bolaning bo‘yini aniqlash uchun uning yoshini 5-6 sm ga ko‘paytiriladi va unga 75 sm qo’shiladi (bola bir yoshlik bo‘lganda uning bo‘yi 75 sm bo‘ladi) $75+5$. Masalan, 8 yoshlik bolaning bo‘yi $75+5 \times 8 = 115$ sm ga teng bo‘ladi.

Tibbiyot va antropologiya adabiyotlarida yozilishicha, bo'yiga tortilish va shakllanish davrlari qoida bo'yicha bir birining ketidan davom etadi, ya'ni birinchi «shakllanish» 1-4 yoshlarda, birinchi bo'yiga tortish 5-7 yoshlarda, ikkinchi «shakllanish» 8-10 yoshlarda, ikkinchi bo'yiga tortish 11-15 yoshlarda yuz beradi. Bunday tasavvur etish juda ham oddiy bir tushunchadir. Haqiqatda esa bolalarning bo'yi va og'irligining o'sishi to'lqinga o'xshash o'zgarib turishidan kelib chiqadi. 7 yoshda va kichik maktab davrlarida bolaning bo'yi og'irligi (vazn) ga nisbatan tezroq o'sa boshlaydi.

Bolaning jismoniy rivojlanishi xususida to'g'ri muhokama olib borish uchun uning og'irligini bilish katta ahamiyatga ega. Bola og'irligining normal ortishida uni o'rab turgan muhit, ovqatlantirish usuli hamda uning o'ziga xos xususiyatlari ta'sir qiladi. Yetilib tug'ilgan bolaning og'irligi 2700-4000 gr borib, qiz bola o'rtacha 3348 gr, o'g'il bola esa o'rtacha 3494 gr bo ladi. 2500 gr chaqaloq chala tug'ilgan yoki tug'ma gipotrofiya, 4 kg dan ortiq tug'ilgan bola esa ortiq vaznli hisoblanadi.

Bolaning og'irligi tug'ilgandan keyin birinchi 3-5 kun ichida tug'ilgandagi birinchi og'irligiga nisbatan 5-8% ga (150-300 gr) kamayadi, so'ngra esa astasekin u 10-12 kunlik bolganida og'irligi birinchi tug'ilgandagi vazniga yetadi. Hamma bolalar og'irligining qonunan bunday yo'qotishini fiziologik yo'qotish deyiladi. Og'irlikning ko'p qismi bola ona qornidagi qulay sharoitdan tug'ilgan zamonoq, tashqi dunyoning mutlaqo yangi muhitiga tushganligi uchun yo'qoladi, chunki bunday sharoitga bola birdaniga moslasha olmaydi.

Yangi sharoitda bola terisi va o'pkasi orqali o'zidan suv chiqaradi. Bola og'irligi fiziologik kamayishining bir ajralgan tug'ilishi vaqtida homila atrofidan olgan suvni qayt qilish hisobiga bo'ladi, deb aytish mumkin.

Shuni ham nazarga olish kerakki, bola tug'ilgandan keyingi birinchi kunlarda onasini endigina emishni boshlaganligi uchun uning suti kamlik qilishi mumkin. Ko'p hollarda og'irlikning «fiziologik» yo'qotishini bola tug'ilgan birinchi kundan boshlab, unga suv va ovqatni yetarlicha berish yo'li bilan birmuncha kamaytirish mumkin. Bola og'irligining 300 gr dan kamayishini

normadan tashqari, deb hisoblash kerak, bu bolaning to‘yib ovqatlanmaganini yoki biror kasallikka chalinganligini ko‘rsatadi. Keyinchalik bola 10-12 kunlik bolgach, u sog‘lom bo‘lsa, o‘zining tug‘ilganligidagi bиринчи og‘irligiga yetib olib, tez semira boshlaydi. Bunda bola ayniqsa, hayotining bиринчи oyida kuniga 25-30 g dan semiradi. So‘ngra bola og‘irligining ortib borishi asta-sekin kamaya boradi.

Alovida har bir bolaning va bolalar jamoasining jismoniy rivojlanishiga baho berish uchun muayyan o‘rtacha standart, yangi nusxa bilan solishtirib ko‘riladi. Lekin bu nusxalarga doimiy va o‘zgarmaydigan deb qarash yaramaydi, chunki normal o‘sish va rivojlanish doimiy o‘zgarib turadi. Bolalarning to‘g‘ri o‘sib rivojlanib borishlarini bilish uchun har bir yoshda bo‘lgan o‘rtacha raqamni bilish yetarli. Undan keyin bolaning yoshiga qarab, bu raqamlarning qanday o‘zgarib turishini ko‘zdan kechirib turmoq kerak.

Bolaning jismoniy jihatdan o‘sishi haqida to‘g‘ri fikr yuritish uchun uning og‘irligi va bo‘yini bilishdan tashqari, boshi va ko‘krak aylanasini, yelka kengligini, oyoq va qo‘lning uzunligini ham o‘lchash lozim. Yelka kengligi har qanday yoshda ham taxminan bo‘yining to‘rtidan bir qismiga to‘g‘ri keladi.

Yangi tug‘ilgan bolalar boshining aylanasi 34-36 sm bo‘lib, 32-34 sm keladigan ko‘krak aylanasidan 2 sm ortiq bo‘ladi. Hayotining bиринчи yili mobaynida: 6 oylik bolaning bosh aylanasi 43 sm, yetmagan har bir oyida 43 sm dan 1,5 ga kamaytiradi, 6 oydan keyin har bir oyda 0,5 sm qo‘shiladi.

2-15 yoshgacha: besh yashar bolaning bosh aylanasi 50 sm ga baravar, yetmagan har bir yilda 0,5 sm dan kamaytiriladi; 5 yoshdan keyin har bir yoshda 0,6 sm qo‘shiladi.

Bola bir yoshga yetganda uning ko‘krak aylanasi 48 sm, boshining aylanasi esa 46 sm keladi. Bir yoshdan keyin bolaning boshi juda sekinlik bilan kattalashadi, ko‘krak aylanasi esa boshiga nisbatan sezilarli darajadakattalashadi. Masalan, besh yoshlik bola boshining aylanasi 50 sm, ko‘kragining aylanasi 56 sm, 10 yoshli bolaning bosh aylanasi 52 sm, ko‘krak aylanasi esa 63 sm, 16 yoshda bosh aylanasi 54 sm, ko‘kraginiki 63 sm, 18 yoshda bosh aylanasi 54 sm, ko‘kragmiki esa 79 sm bo‘ladi.

Yangi tug‘ilgan bolaning oyoq va qo‘lining uzunligi gavda uzunligiga (18-18 sm) teng keladi. Professor M. S. Maslovning ma’lumotiga ko‘ra, bola 7 yoshlik bo‘lganda oyog‘ining uzunligi uch baravar, qolining uzunligi 2,5 baravar, gavda uzunligi ikki baravar, 16 yoshga kirganda besh baravar, qoliniki to‘rt baravar, gavdasiniki esa uch baravar oshadi.

Bolaning garmonik rivojlanishini baholash uchun antropometrik indekslari ishlataladilar. Tur indeksi ko‘krak aylanasi va bosh aylanasi o‘rtasidagi nisbatidan hisoblanadi. Sog‘lom tug‘ilgan bolaning ko‘krak aylanasi bosh aylanasidan 1-2 sm kamroq. 2-3 oyda bu ko‘rsatkichlar baravarlashadi, 3 oydan keyin chap-rost bo‘ladi, bir yoshgacha ko‘krak aylanasi boshdan 1,5-2 sm kattalashadi. Erisman indeksi ko‘krak aylanasi bo‘yining yarmiga nisbatan hisoblanadi. Ikki oydan katta bolaning ko‘krak aylanasi bo‘yining yarmidan 10-12 sm katta bo‘ladi.

Bola oriqlab ketganda Erisman indeksi 9,8-7,6 sm gacha kamayadi, semirganda 14-15-16 sm gacha ko‘payadi.

Chulitskaya indeksi formula bilan hisoblanadi. Yelkaning uchta aylanasi + son aylanasi + bosh aylanasi + bo‘yining ko‘rsatkichlari, 2 oydan katta bolada bu indeks — 20, yarim yilda —25, bir yoshda yana 20, oriqlab ketishda indeksning ko‘rsatkichlari 18-15-10 gacha kamayadi, semirishda esa 30- 35 gacha ko‘payadi. Bo‘yni o‘lchash vertikal rostomer yordamida o‘lchanadi.

Emadigan bolalarning bo‘yi esa gorizontal rostomer yordamida o‘lchanadi, chunki tekshirish yotgan vaziyatda olib boriladi. Emadigan bolalarning og‘irligini o‘lchash uchun istalgan sistemadagi va yetarli darajada sezuvchan, yetuk vaziyatda o‘lchashga imkon beradigan tarozilardan foydalanish mumkin. Kattaroq yoshdagi bolalar og‘irligini o‘lchash uchun kattalar og‘irligini o‘lchaydigan tarozi ishlataladi.

Insonning rivojlanishi undagi genlarda mujassamlashgan jismoniy, aqliy va hissiy rivojlanishlarning potensialini ro‘yobga chiqish jarayonidir. Bu jarayon turli odamlarda va turli davrlarda har xil darajada kechadi hamda odamlarni turlicha ijtimoiy, milliy va hududiy guruhlarga aloqador bo‘lishini izohlaydi (I.A. Tishevskoy, 2001).

Rivojlanayotgan organizmning, ayniqsa uning faol qismlarining o‘lchamlarini kattalashuvini izohlaydigan ko‘rsatkich bu o‘sish bo‘lib, u keskin proporsionallik xususiyatiga ega emas va shakllanish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir (E.N. Xrisanova, I.V. Perevozchikov, 2005). Hozirgi davrda ham antropologiyaning an’anaviy o‘lhash usullarini qo‘llash aholining u yoki bu guruhining morfologik statusi to‘g‘risida yetarli darajada tushuncha olish imkonini bermoqda.

Kraniometrik ko‘rsatkichlarni o‘lhash kalla suyagining yoshi va qaysi jinsga taalluqli ekanligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi (A.A. Cherepanova, 2005).

Antropometrik tekshirishlarning katta qismi tananing bosh va yuz qismlarida o‘tkaziladi. Buning asosiy sababi shundaki, erta bolalik davridayoq ma’lumot to‘plash mumkin. Bundan tashqari boshning o‘sishi tananing boshqa qismlariga nisbatan erta tugallanadi (V.M. Xaritonov, A.P.Ojigova, E.Z. Godina, 2004).

Jismoniy rivojlanishni tavsiflashning nisbatan to‘liqroq dasturi o‘zining ichiga tananing alohida segmentlarini, yog‘ burmalarini, morfologik belgilarni izohlovchi ko‘rsatkichlarni o‘lhashni qamrab oladi. (Pavlova S.V., Radnatarov V.S. 2001).

F.Ya. Xoroshilkinaning (1999) aytishicha, tish-alveolyar ravog‘i bilan yuzning shakl va o‘lchamlari orasidagi o‘zaro proporsional bog‘liqlik mavjud. Mavjud mutanosiblikning izdan chiqishi organizmning rivojlanishiga doir turli xil buzilishlarni tashxislashda yordam beradi.

Bir qator mualliflarning takidlashicha, jag‘ suyaklari morfologiyasining deformatsiyasi raxit kasalligining aniq belgilaridan biri hisoblanadi (V.N. Trezubov, A.S. Sherbakov, R.A. Fadiev).

Odamdagi o‘sish jarayonini o‘rganish 2 ta ko‘rinishda bo‘ladi: bo‘ylama va ko‘ndalang. Bo‘ylama usul (individual usul) bir qator yillar davomida har yili yoki bir yilda bir necha marta bir guruhdagi bolalarda o‘tkaziladi. Ko‘ndalang usul (tarqalgan usul) qisqa vaqt oralig‘ida turli

yoshdagi bolalarni tekshirishga mo‘ljallangan. Ko‘ndalang usulda tekshirish me’yoriy o‘sish ko‘rsatkichini va har bir yosh uchun me’yor chegarasini aniqlash imkonini beradi. Bo‘ylama usulda tekshirish morfologik va funksional ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini izohlash, shuningdek, o‘sish jarayonini boshqarishda endogen va ekzogen omillarning tutgan o‘rnini tushunishga imkon yaratadi (A.B. Xomutov, 2004).

Ikkala usul ham auksologiyada keng qo‘llaniladi. Lekin o‘sishning haqiqiy tezligi to‘g‘risida ma’lumotni faqatgina bo‘ylama tekshiruvlarni tahlil qilish orqali olish mumkin (V.M. Xaritonov, A.P.Ojigova, E.Z. Godina, 2004).

Tibbiy va sportga oid antropologiya muammolarini echishning muhim bosqichlaridan biri tana tuzilishini tashhislash hisoblanadi (B.A.Nikityuk, A.I.Kozlov, 1990). Shaxsni identifikatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri odam tanasining morfologik xususiyatlarini o‘rganishdir (N.L. Malseva, 2006).

V.A. Distel, V.G. Sunsov, V.D. Vagner (2001) lar antropometrik tekshiruvlarning klinik ahamiyatiga alohida to‘xtalib, tish-jag‘ anomaliyalarini ichida boshni, yuzni, jag‘lar va tish yoyslarini antropometrik tekshirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar.

Odatda tibbiy-biologik tekshiruvlarni o‘tkazishda yoshta bog‘liq morfologiya, fiziologiya va bioximiya bo‘yicha VII Butun Sobiq Ittifoq konferensiyasida (Moskva, 1965y.) qabul qilingan yosh davriyligi jadvalidan keng foydalaniladi (E.N. Xrisanova, I.V. Perevozchikov, 2005).

1.2. Kalla suyaklarining taraqqiyoti

Turli biologik ko‘rsatkichlarga ijtimoiy omillarning ta’sirini o‘rganishda qat’iy antropometrik qonuniyat mavjud. Bu birinchi navbatda o‘sish va rivojlanish jarayonlariga bog‘liq bo‘lib, ular jamiyatda ro‘y berayotgan jarayonlarning o‘ziga xos “oynasi”, boshqacha qilib aytganda indikatori bo‘lib xizmat qiladi (V.M. Xaritonov, A.P.Ojigova, E.Z. Godina, 2004).

Inson taraqqiyoti o'sishning faollashish va tormozlanish davrlari bilan tavsiflanadi. O'sish sur'ati atrof muhitdagi ko'plab ekzogen omillarning ta'siri ostida chegaralanadi yoki faollashadi. Lekin ularning ta'siri nasliy omillar bilan belgilangan me'yoriy reaksiyalarning chegarasi hisobiga rivojlanish jarayonini izdan chiqara olmaydi (V.A. Ovcharenko, I.E. Lukyanova, 2008).

Kalla suyagi insonning butun hayoti davomida o'zgarishda bo'ladi. Kalla suyagining o'lchamli xususiyatlarini individning pasport yoshi bilan bog'liqligi kam, lekin vaqt o'tishi bilan kalla suyaklari choklarining yopilishi, tishlarning emirilishi va tushishi, suyaklarning atrofiyasi va boshqalar kalla suyagining davriy o'zgarishda bo'lishini ta'minlaydi (Sh.M. Musaev, 1996).

Hozirgi davrga kelib bolalar va o'smirlarning jismoniy ko'rsatkichlari tobora oshib bormoqda: masalan, I.A. Tishevskoy (2000) tomonidan berilgan ma'lumotlarga qaraganda, Moskva shahri sharoitida yashovchi 13 yoshli bolalarning bo'yi oxirgi 80 yil ichida o'rtacha 16 sm ga o'sgan, xuddi shu yoshdagi qiz bolalarning bo'yi 14.8 sm ga o'sgan.

Ekzogen omillarga ijtimoiy-iqtisodiy, iqlimga bog'liq bo'lgan va ekologik omillar kiradi. Ularning ichida asosiy o'rinni ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillar egallaydi (L. Tegako, E. Kmenitinskiy, 2004). T.V. Panasyuk (2008) odam somatotipini shakllanishida nasliy omillarning ta'siriga katta baho beradi (74-85 %).

A.Yu. Perunov (2006) esa boshning antropometrik ko'rsatkichlarini shakllanishiga asosan radiatsiya, fizik va kimyoviy omillarning ta'siri muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi.

Odam kalla suyagini antropomorf jonzotlar kalla suyagi bilan solishtirilganida miya qutisining keskin kattalashuvi, yuz sohasining kichiklashuvi va shunga bog'liq holda kalla suyagi miya qismini yuz qismining ustida joylashishi bilan tavsiflanadi (Ya.Ya. Roginskiy, M.G. Levin, 1978).

Kalla suyagining bo'ylama va ko'ndalang diametrlarini yoshga bog'liq holda o'sish dinamikasida tafovutlar kuzatiladi: bo'ylama diametr o'sish jarayonida ko'proq kattalashishni ko'rsatadi. Shuning uchun yosh kattalashib

borgan sari bosh ko'rsatkichi biroz pasayadi (Ya.Ya. Roginskiy, M.G. Levin, 1978). Organizmning o'sish jadalligida irqiy farqlar ham mavjud (L.Tegako, E. Kmenitinskiy, 2004).

S.E. Baybakov (2008) kalla suyagining bo'ylama o'lchamda o'sish dinamikasini 3 davrga bo'ladi:

1-davr 1-7 yoshlari;

2-davr 9-13 yoshlari (ayollarda 9-14 yoshlari);

3-davr 15-20 yoshlari (ayollarda 16-21 yoshlari), bunda o'sishning nisbatan stabillashgan davri 8-9, 14-15 yoshlarga (ayollarda 8-9, 15-16 yoshlarga) to'g'ri keladi.

Kalla suyagining ko'ndalang o'lchamda o'sish dinamikasini 2 ta davrga bo'ladi:

1-davr 1-13 yoshlari;

2-davr 15-20 yoshlari, bunda nisbatan o'sishning stabillashgan davri 13-15 yoshlarga to'g'ri keladi.

Kalla suyagining vertikal o'lchamda o'sish dinamikasini ham 2 ta davrga bo'ladi:

1-davr 1-6 yoshlari;

2-davr 15-20 yoshlari (ayollarda 15-21 yoshlari), bunda o'sishning nisbatan stabillashgan davri 7-14 yoshlarga to'g'ri keladi.

Kalla suyagining chiziqli va burchakli ko'rsatkichlari yosh kattalashgan sari o'zgarib boradi va jinsiy dimorfizm holati kuzatiladi(O.Yu. Aleshkina, 2007).

Organizm qanchalik yosh bo'lsa undagi o'sish va rivojlanish jarayonlari shunchalik jadal kechadi.Organizmning o'sish va rivojlanish jarayonlari bir tekisda kechmaydi (I.A. Tishevskoy, 2001).

Bosh o'lchamlarining kattalashuvi katta odamlarda ham davom etadi, biroq jarayon juda sekin kechadi. Yuz qismining o'sishi birinchi navbatda tishlarning chiqishi bilan bog'liq. Shunga ko'ra boshning yuz qismi miya qismiga nisbatan kech shakllanadi. Yuzning kengligini ifodalovchi

ko'rsatkichlarining taraqqiyoti yuz balandligini ko'rsatkichlariga nisbatan erta tugallanadi (Orlov S.A., Sosin D.G., 1997).

Yoshlik davrida jag' suyaklari o'lchamlarining o'zgarishi tishlar va jag'larni o'zaro bir butunlikda rivojlanishi xisobiga kechadi (F.I. Valker, 1948; L.V. Ilina-Markosyan, 1949; I.I. Chaykovskaya, A.T. Busgin, 1961).

Postnatal ontogenez davrida bolaning yuz qismi proporsiyasi tish-jag' apparati hisobiga yuz balandligining mutloq va nisbiy kattalashuvi qonuniyatlari bilan uzviy bog'liq. 5-6 yoshlardan keyin bolaning yuz qismini shakllanishi va uning o'lchamlarini o'zgarishi individual nasliy mexanizm asosida boshqariladi (V.V. Kupriyanov, G.V. Stovichek, 1988).

Yuz o'lchamlarining o'sishi bir butun umumiylar jarayondir. Buni pastki jag'da aniqroq kuzatish mumkin: yoshga bog'liq holatda dahan borgan sari uzunlashib va oldingan chiqib boraveradi (V.M. Xaritonov, A. P.Ojigova, E.Z. Godina, 2004).

Yoshlik davrida o'g'il bolalarga jag'larning neytral va gorizontal tipdagi o'sishi xos bo'lsa, qiz bolalarga neytral va vertikal tipdagi o'sish xos bo'ladi (E.V. Gorelik, 2006).

Bola hayotining maktab davrida tananing barcha qismlarini proporsiyasida jinsiy farqlar shakllanadi (L. Tegako, E. Kmenitinskiy, 2004).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholini turli guruhlarining kalla suyagini tavsiflaydigan yagona ko'rsatkich mavjud emas. Kalla suyagining tuzilishi va o'lchamlari ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi (A.I.Xolamov, 2012).

V.G. Kolodko (2009) chekka shimoliy xudud (Norilsk shahri) sharoitida yashovchi 7-15 yoshlardagi bolalarning jismoniy rivojlanishini o'lchab, jismoniy rivojlanish yoshg'a bog'liq bo'lgan yagona dinamik jarayonda shakllanadi va o'sish jarayonlarining tengsizligi hamda jinsiy dimorfizmi bilan izohlanadi deb xulosa qiladi.

Jag'larning tishlar almashinuvi davridagi o'sishi sagittal, vertikal va transversal yo'naliishlarda bo'ladi (A.D. Abduazimov, F.Sh. Fayzullaev, 2002). Qattiq tanglay o'lchamlarining o'zgarishi yuz va boshning chiziqli

o‘lchamlariga, kalla suyagi miya va yuz qismlarining shakliga, pastki jag‘ning o‘lchamlariga bog‘liqdir (G.A. Lukina, 2009).

Suyaklarning rivojlanish jarayoni 25-30 yoshda tugallanadi. Bu yoshdan keyin suyaklarga qarab yoshni belgilashning aniqlik darajasi nisbatan pasayadi. Kalla suyaklaridagi yoshga bog‘liq holda kechuvchi rentgenologik o‘zgarishlarni shartli ravishda 3 ta davrga bo‘lish mumkin:

0-20 yosh;

21-40 yosh;

41 va undan yuqori.

Birinchi davrga kalla qopqog‘i suyaklarining jadal o‘sishi va o‘rta plastinkalarni ya’ni diploeni shakllanishi xos. Ikkinci davrda kalla qopqog‘i odatdagi tuzilishga ega bo‘ladi. Uchinchi davrda esa osteoporoz va uni suyakning barcha qavatlariga tarqalishi yuz beradi, shundan keyin to 60-70 yoshgacha bu jarayon asta-sekinlik bilan kuchayib boradi (A.D. Djagaryan, 1984).

1.3. Kalla suyagini umumiylar morfologiya xususiyatlari

Kalla suyagini, uning o‘lchamlari va shaklini, shuningdek uni tashkil etuvchi alohida qismlarini antropologiya fanining maxsus bo‘limi – kraniologiya o‘rganadi (Ya.Ya. Roginskiy, M.G. Levin, 1978).

Odam kalla suyagini rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganish va kalla suyagi ko‘rinishlarining optimal tasnifini yaratish tibbiy kraniologiyaning hozirgi kundagi dolzab muammosi bo‘lib hisoblanadi (O.Yu.Aleshkina, 2007).

Kraniologik tekshiruvlar yordamida o‘zbeklarning irqiy tipi to‘g‘risida nisbatan to‘liq ma’lumot olish mumkin. SHuningdek hududlardagi aholining irqiy xususiyatlarini ham tavsiflash mumkin. Toshkent, Samarqand, Xorazm viloyatlari va Farg‘ona vodiysining o‘zbek aholisi O‘rta Osiyo kichik irqiga xos belgilarga ega. Samarqand viloyatidagi qishloqlarda, Farg‘ona vodiysining shimolida yashaydigan aholining o‘zbek millatiga oid qismida janubiy-sibir tipi va O‘rta Osiyo kichik irqining mo‘g‘ullashgan ko‘rinishini

kuzatish mumkin. Xorazm viloyatidagi o‘zbeklarda O‘rta Osiyo kichik irqidan tashqari sharqiy-o‘rta yer dengizi kichik irqiga oid belgilar ham saqlanib qolgan (T.K. Xodjaev, 1987).

Bosh sohasi ham kalla suyagi kabi 2 ta qismga bo‘linadi: miya qismi va yuz qismi. Miya qismining o‘lchamlari va shaklini izohlash uchun 2 xil diametr ya’ni bo‘ylama va ko‘ndalang diametrlar qo‘llaniladi (A.B.Xomutov, 2004).

Inson kalla suyagi birinchi navbatda miya qutisining kattalashuvi va yuz qismining kichiklashuvi bilan ifodalanadi (Ya.Ya. Roginskiy, M.G. Levin, 1978). Kalla suyagini ma’lum bir tiplarga bo‘lish, uning miya va yuz qismlari shaklining o‘zaro nisbatiga asoslanadi (O.Yu. Aleshkina, 2007).

I.A. Polkovova (2009) qanot-tanglay yorig‘ining konfiguratsiyasiga ko‘ra kalla suyagini 6 ta shaklga bo‘ladi.

Kalla suyagining 2 ta qismi ajratiladi: miya va yuz qismlari. Miya qismiga peshona, tepa, chakka, ensa, ponasimon va g‘alvirsimon suyaklar kiradi. Yuz qismiga esa yuqori jag‘, yonoq, tanglay, burun, ko‘z yosh, pastki burun chig‘anog‘i, dimog‘ va pastki jag‘ suyaklari kiradi (anatomiyada til osti suyagi ham kiritiladi).

Kalla suyagining ma’lum bir tipga xosligi uning miya va yuz qismlari shakllarining o‘zaro munosabati bilan izohlanadi (O.Yu. Aleshkina, 2007).

Tashqi eshituv teshigidan o‘tkazilgan vertikal chiziq kalla suyagini oldingi va orqa qismlarga ajratadi. Agar qulqoq suprasi bu chiziqdandan oldinda va peshona qismiga yaqin joylashsa, bu holat frontopetal tipdagi boshga xos, aksincha chiziqdandan orqada va ensaga yaqin joylashsa oksipitopetal tipdagi bosh deb ataladi (A.D. Djagaryan, 1984).

O‘rta Osiyo va Kavkaz xalqlarida ensa soxasining yassilanishi kuzatiladi. Bu odatda bolani uzoq muddat beshikka yotqizish bilan bog‘liq bo‘lib, kalla suyagi shaklini braxikefalisatsiyasini chaqiradi (Ya.Ya.Roginskiy, M.G.Levin, 1978).

Boshning yuz qismini 4 ta teng qismga bo‘lish mumkin:

a) cho‘qqisidan soch bilan qoplangan qismining qirg‘og‘igacha;

- b)peshona sohasi;
- v)burun balandligi
- g)yuzning pastki qismi.

Yuz sohasi kishilar o‘rtasidagi muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lish bilan birga, san’at vakillari (rassomlar, haykaltaroshlar, artistlar), anatomlar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, shu jumladan plastik jarrohlar, yuz-jag‘ jarrohlari, stomatologlar va dermatologlar uchun tekshirish ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi (A.A. Baindurashvili, 2011).

Qulqlar orasidagi o‘rtacha masofa qoshlar bilan dahanning pastki qirg‘og‘igacha bo‘lgan masofaga teng bo‘lishi kerak deb hisoblanadi (V.V. Kupriyanov, G.V. Stovichek, 1988).

Mongoloid irqiga oid odamlarda ko‘pincha tor, sezilarsiz darajada ko‘tarilgan shakldagi burun kuzatiladi (I.A. Tishevskoy, 2001).

Yuzning burun qismini tavsiflashda burunning balandligi va kengligi o‘lchanadi (Orlov S.A., Sosin D.G., 1997). Tashqi burunning o‘lchami va shakli antropologik tekshiruvlarda irqiy, yoshga bog‘liq-jinsiy va individual jihatdan muhim tashxislovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Iрqiy tashxislashda burunning mutloq o‘lchamlaridan tashqari, ularning foizli nisbati – burun indeksi ham katta ahamiyat kasb etadi (A.B. Xomutov, 2004).

Ko‘z sohasining o‘lchamlarini aniqlashda ko‘z kosasining tashqi kengligi va oraliq kengligi nisbatan ko‘proq ma’lumot beradi (Orlov S.A., Sosin D.G., 1997). Ko‘z kosasiga oid kraniometrik ko‘rsatkichlar ichida ko‘z kosasining uzunligi nisbatan intensiv o‘sadigan ko‘rsatkich hisoblanadi (V.V. Shut, 2008). Ko‘z kosasi morfologiyasining o‘zgarishi kalla suyagi kraniniometrik ko‘rsatkichlari bilan uning kraniotipiga bog‘liq (A.F. Sipyashuk, 2005).

Markaziy, Sharqiy va Shimoliy Osiyoning mongoloid aholisiga burun-qosh oralig‘ining juda katta bo‘lishi xos (10-12 mm gacha), yevropoid aholida bu ko‘rsatkich odatda 4-5 mmdan oshmaydi (Ya.Ya. Roginskiy, M.G. Levin, 1978).

1.4. Kalla suyaklarining jinsiy va individual tafovutlari

Kraniologik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri, kalla suyagining jinsiy xususiyatini aniqlash hisoblanadi. Suyaklarga qarab jinsnii va yoshni aniqlash ikkita mustaqil yo‘nalish hisoblanadi, lekin shu bilan birgalikda ularni odam skeletining umumiy belgilari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini hisobga olib, bu ikkala yo‘nalish o‘zaro ajratish mumkin emas. Shu bilan birgalikda jinsnii va yoshni aniqlashda yagona ko‘rsatkichga emas, balki bir qancha ko‘rsatkichlar yig‘indisiga asoslanish lozim (V.P. Alekseev, 1966).

Jinsnii aniqlash sud-tibbiy ekspertizada, bir qancha maxsus morfologik tekshiruvlarda hamda kraniologik materialdagi erkaklar va ayollar organizmidagi o‘zgarishlarning umumiy muammolarini o‘rganishda zaruriyat hisoblanadi (V.P. Alekseev, G.F. Debets, 1964).

Boshning o‘lchamlari barcha yoshda o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan kattaroq bo‘ladi (Orlov S.A., Sosin D.G., 1997).

Erkaklar va ayollar kalla suyaklari orasidagi jinsiy tafovutlarni va morfologik farqlarni aniqlashda kalla suyagidagi notekisliklar, do‘mboqlar, qirralar, do‘nglarga, shuningdek ularning rivojlanganlik darajasiga, qosh usti yoylari, burun asosi, ko‘z kosasining shakli kabi boshqa anatomik belgilarga asoslaniladi. Bolalarda ushbu belgililar nisbiy hisoblanadi (A.D. Djagaryan, 1984).

G.B. Xasanovaning (2003) yozishicha odamning individual xususiyatlari ikkita katta sinfga bo‘linadi: yoshga oid-jinsiy xususiyatlar sinfi (unga yosh va hayot fazasi, shuningdek jinsiy belgilar kiradi) va individual-tipik xususiyatlar sinfi (konstitutsion va neyrodinamik xususiyatlar).

Yuzning o‘lchami va umumiy shakli yoshga, jinsga, irqiy kelib chiqishga, organizmning konstitutsional va individual xususiyatlariga bog‘liq. Organizmning individual xususiyatlari nasliy omillar ta’sirida shakllanadi, shuningdek jismoniy (patologik) va ijtimoiy holatiga (kasbi, ovqatlanishi, nutqi) bog‘liq bo‘ladi (V.V. Kupriyanov, G.V. Stovichek, 1988).

T.N. Galkina (2008) Penzen regionida yashovchi 16-21 yoshdagি o‘g‘il bolalar tanasining bo‘ylama, aylana va ko‘ndalang antropometrik ko‘rsatkichlari shu yoshdagи qiz bolalarnikidan katta bo‘lishini ta’kidlaydi.

13-14 yoshlar orasidagi davrda o‘g‘il bolalarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari, shu yoshdagи qiz bolalarnikiga qaraganda kattaroq bo‘ladi. (I.A. Tishevskoy, 2001).

Asosiy anropometrik ko‘rsatkichlarning o‘sish jadalligining maksimal cho‘qqisi ikkala jins vakillarida ham 8-9 yoshlar orasiga to‘g‘ri keladi (Platonova N.A., 2005).

Yoshlik davrida kefalometrik ko‘rsatkichlarda jinsiy dimorfizm kuzatilib, bu holat ayniqsa yuzning pastki 1/3 qismida kuchliroq namoyon bo‘ladi (E.V. Gorelik, 2006).

T.I. Izmailova (2006) birinchi bolalik, ikkinchi bolalik va o‘smirlik davrlarida bolalardagi ko‘plab kraniometrik ko‘rsatkichlarda jinsiy dimorfizm kuzatilishini yozadi.

E.I. Dubovikning (2009) yozishicha, yuz qismining chiziqli o‘lchamlaridagi jinsiy tafovut yuz qismining morfogenezi tugallangandan so‘ng namoyon bo‘ladi.

P.G. Pivchenko, A.I. Xolamovlarning (2012) ta’kidlashicha, jinsiy balog‘atga yetish davrida kalla suyagining shakllanishida erkaklar va ayollar skeleti orasida sezilarli farq kuzatiladi. Odam suyaklarining qoldiqlarini o‘rganish individning qaysi jinsga ta’alluqligi to‘g‘risida yetarli daraja ma’lumot bera oladi.

Xitoy XDR fuqarolari hisoblangan erkaklar va ayollarning sefalometrik ko‘rsatchichlarida sezilarli farqlar kuzatilmaydi (Fen Lin, 2012).

I BOB YUZASIDAN XULOSALAR

- I. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, antropometriya sohasida olimlar tomonidan olib borilgan ishlar ichida yoshga bog‘liq antropometriyaga doir tadqiqotlarning salmog‘i anchaginani tashkil etadi.
- II. Ammo antropometriyaga oid mavjud adabiyotlarda kraniometriyaga doir olib borilgan ishlar juda kam. Shuningdek ularda ko‘pincha qarama-qarshiliklar mavjud va kraniometrik ko‘rsatkichlarning o‘sish qonuniyatları to‘liq yoritilmagan.
- III. Kraniometrik ko‘rsatkichlarni rivojlanishiga geografik, ekologik, etnik va ijtimoiy omillarning ta’sir etishi masalasi ko‘plab tadqiqotchilarning nuqtai nazaridan tashqarida qolib ketgan.
- IV. Yuqoridagilarga bog‘liq holda kichik mакtab yoshidagi bolalar kraniometrik ko‘rsatkichlarining rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishda va ularni yanada chuqurroq tahlil qilishda quyidagilarni aniqlash lozim:
 1. Kichik mакtab yoshidagi bolalarning kraniometrik ko‘rsatkichlarini o‘sish dinamikasini tavsiflash.
 2. Kichik mакtab yoshidagi bolalarning kraniometrik ko‘rsatkichlarini nisbatan intensiv o‘sish davrlarini aniqlash.
 3. Kichik mакtab yoshidagi bolalar kalla suyagi va uning ma’lum bir qismlari orasidagi o‘zaro nisbatlarni aniqlash.
 4. Kichik mакtab yoshidagi davrda o‘g‘il va qiz bolalar kalla suyagi kraniometrik ko‘rsatkichlari orasidagi jinsiy tafovutlarni aniqlash.

II – BOB

KRANIOMETRIK TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

Ilmiy tadqiqotning materiali sifatida Izboskan tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 7- va 41-umumta'lim mакtablarida ta'lim olayotgan 1-6 sinfdagi (7-12 yosh) jismoniy va aqliy jihatdan har tomonlama sog'lom 360 nafar o'g'il va qiz bolalar olindi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot jarayoniga jalb etilgan bolalarning yoshi va jinsiga bo'yicha guruhanishi

Nº	Yosh guruhi	Bolalarning umumiyl soni	O'g'il bolalar	Qiz bolalar
1.	7 yosh	60	32	28
2.	8 yosh	60	37	23
3.	9 yosh	60	31	29
4.	10 yosh	60	33	27
5.	11 yosh	60	26	34
6.	12 yosh	60	25	35
Jami bolalar soni		360	184	176

Ayrim mualliflarning takidlashicha 6-8 yoshdagi bolalarning morfologik hamda funksional ko'rsatkichlari ularning kalendar yoshiga bog'liq (Nguen Txı Ngok Cham, S.V. Matveev, M.V. Merkulov, V.P. Svyatogor, 1983).

Tekshirishlarni o'tkazishda bolalar E.G. Martirosov (1982) tavsiyasiga asosan ya'ni yoshi va jinsiga qarab alohida guruhlarga ajratildi.

Olib borilgan kraniometrik tekshirish natijalarini to'g'ri baholash maqsadida bolalarning yoshi X.G. Butaev, K.S. Ladodo, I.Ya. Kon, Ya.

Usmanovlar (1985) tomonidan tavsiya etilgan quyidagi qoida asosida amalga oshirildi:

- a) 7 yoshli bolalar deb, 6 yosh 6 oylikdan 7 yosh 5 oylik 29 kunlikgacha bo‘lgan bolalar olindi;
- b) 8 yoshli bolalar deb, 7 yosh 6 oylikdan 8 yosh 5 oylik 29 kunlikgacha bo‘lgan bolalar olindi;
- v) 9 yoshli bolalar deb, 8 yosh 6 oylikdan 9 yosh 5 oylik 29 kunlikgacha bo‘lgan bolalar olindi.
- g) 10 yoshli bolalar deb, 9 yosh 6 oylikdan 10 yosh 5 oylik 29 kunlikgacha bo‘lgan bolalar olindi.
- d) 11 yoshli bolalar deb, 10 yosh 6 oylikdan 11 yosh 5 oylik 29 kunlikgacha bo‘lgan bolalar olindi.
- e) 12 yoshli bolalar deb, 11 yosh 6 oylikdan 12 yosh 5 oylik 29 kunlikgacha bo‘lgan bolalar olindi.

Tana turli qismlarining rivojlanishi haqidagi barcha morfometrik ma’lumotlarni maxsus jadvalga yozish kerak.

Odam bo‘yini o‘rganishning ikki turdag'i, ya’ni bo‘ylama va ko‘ndalang morfologik tekshirishlar usuli mavjud. Bo‘ylama usuldag'i tekshirishda ma’lum bir bolalar organizmining bo‘y parametrlarini bir necha yil davomida o‘rganiladi.

Bunda bo‘yni har yili yoki yiliga bir necha marotaba o‘lchash mumkin. Ko‘ndalang usuldag'i tekshirishda ma’lum bir vaqt oralig‘ida turli xil yoshdagi bolalarning rivojlanishi o‘lchanadi.

Antropometriya (antropo ... va yun. metro — o‘lchayman) — antropologyaning tekshirish usullaridan biri. U odam organizmi a’zolarining hamma belgilari (uzunligi, eni, qalinligi, shakli, rangi va hokazo) o‘zgarib turishini miqdoriy tomondan tavsiflab beradi.

Olingen ma’lumotlar organizmning ayrim bo‘laklari (bosh, bo‘yin, ko‘krak qafasi, qorin va chanoq qismlari, qo‘l va oyoqlar)ga taqqoslanib, o‘sishi yoki o‘zgarishi kuzatib boriladi. Uzunlik, kenglik va burchak belgilari

antropometriya asboblari (uchi do'mboq sirkul, sirg'anuvchi sir-kul, koordinatali sirkul, odam bo'yini o'lchovchi antropometr, burchakni o'lchovchi goniometry va jag'ni o'lchovchi mandibulo-metr va hokazo) yordamida o'lchanadi.

Tana, ayniqsa bosh, yuz, burun, labning o'lchash mumkin bo'lmaydigan belgilari — rang va shakllari maxsus ishlab chiqilgan shkala va etalonlarga qarab aniqlanadi. Antropometriya ma'lumotlaridan kriminalistikada jinoyatchilarni tavsiflash va aniqlashda ham foydalaniadi.

Antopometriyaning paydo bo'lishi 19-asrga to'g'ri keladi va fransuz antropologi P. Broka nomi bilan bog'liq. Uning keyingi rivojlanishiga R. Martin va antropologlar: V. V. Bunak va A. I. Yarxo katta hissa qo'shdilar. Birinchisi antropologik asboblar (antropometr, sirkul, o'lchov tasmalari...) yordamida aniqlangan.

O'lchovlar ma'lum bir antropometrik nuqtalar o'tasida amalga oshiriladi. Umumiyligi (tana uzunligi, vazni, ko'krak qafasi aylanasi, bosh aylanasi) va shaxsiy (oyoq va qo'lning uzunligi, aylanasi, har bir barmoq uzunligi, yuz qism o'lchovlari, va boshqalar) tana o'lchamlari mavjud. Bundan tashqari shaxsni tavsiflovchi xususiyatlarni aniqlash (tana qismlarining shakllari, teri pigmentatsiyasi, soch va ko'zlar rangi, soch shakli va boshqalar) aniq chegaralangan mezonlar asosida shakllantirilgan o'lchovlar asboblari, mulyajlar, sxemalar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, V.V.Bunak ko'z rangi shkalasi uchun 12 xil rang variantini, Fisher-Zaller soch rangi shkalasi uchun - 40 ta rangni hisobga oladi. Bundan tashqari antopometriyada antropologik suratga olish usullari keng qo'llaniladi.

Antropometrik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi zamonaviy tahlil usullari (rentgen, ultratovush tekshiruvi) joriy etilgan. Irqshunoslik va etnik antropologiyada bosh, yuz, bosh suyagi, tana uzunligi o'lchanadi, irqiy tiplarni farqlash uchun ko'z, teri, soch va boshqalar rang shkalasi qo'llaniladi.

Inson morfologiyasida va ayniqsa, jismoniy rivojlanish darajasini aniqlashda tana massasi, tana uzunligi (bo'yi) va boshqa bo'ylama, ko'ndalang va aylana o'lchovlari hisobga olinadi. Ularning asosida odamlar va aholining turli guruhlarida

jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beruvchi standart shkalalar yaratilgan.

Antropometrik tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar statistik (biometrik) ishlov berishdan o'tkaziladi.

Antropometriya klinik amaliyotda, sud tibbiyotida (yoshni tekshirish uchun), akusherlikda (ayolning tos suyagi hajmini, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning etuklik darajasini aniqlashda), pediatriyada (bolalar jismoniy rivojlanishini nazorat qilish uchun) va gigienada (bolalar, maktabda) qo'llaniladi. , professional va boshqalar).

Antropometrik ma'lumotlar harbiy xizmatga yaroqlilagini baholash, kiyim-kechak, poyabzallarni standartlashtirish, ish joylarini oqilona tashkil etish, turli ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa tadbirlarning aholining jismoniy rivojlanishi va salomatligiga ta'sirini baholashda keng qo'llaniladi. Shunga muvofiq, ommaviy ishlab chiqarilgan buyumlarni (kiyim-kechak, poyabzal) standartlashtirish va ish joylarini oqilona joylashtirish ham antropometrik ma'lumotlarga asoslanadi.

Antropometriya ehtiyyotkorlik bilan tekshirilgan va sozlangan o'lchov asboblari yordamida amalga oshiriladi: tarozi, stadiometer, santimetrlı lenta, dinamometr va boshqalar.

Barcha o'lchovlarni kunning birinchi yarmida, och qoringa yoki ovqatdan keyin 2-3 soat o'tgach amalga oshirish maqsadga muvofiqdir, mavzu engil trikotaj kiyimda bo'lishi kerak.

Agar o'lchovlar ikkinchi yarmida amalga oshirilsa, 10-15 daqiqa davomida gorizontal holatni olish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi baholashning ob'ektivligi uchun o'lchov qoidalariga qo'yiladigan talablarga rioya qilish kerak. Antropometrik ko'rsatkichlarni tahlil qilish - muhim element muvofiqlik tadqiqotlari jismoniy rivojlanish yosh standartlari. Aniqlangan og'ishlar xavf omillari yoki ma'lum kasalliklarning belgilari bo'lishi mumkin.

Rejalashtirilgan antropometriya usuli bilan bolaning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish qat'iy belgilangan vaqt oralig'ida tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Bunday nazorat, qoida tariqasida, shifokor yoki bolalar tomonidan amalga

oshiriladi maktabgacha ta'lim muassasalari. Erta yoshdagi bolaning antropometrik tekshiruvi va maktabgacha yosh o'z ichiga oladi to'liq dastur tekshirish tartib-qoidalari: tana vazni va bo'yi, bosh atrofi (hayotning birinchi yilidagi bola uchun) va ko'krak qafasi, pozitsiyasi, tana yog'i darajasi va boshqa ko'rsatkichlarni o'lchash.

Antropometrik taddiqot o'tkazish jismoniy holat erta va maktabgacha yoshdagi bolalar quyidagi qoidalarga asoslanadigan yagona o'lchov metodologiyasiga rioya qilishlari kerak:

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) bolaning jismoniy rivojlanishini alohida bolaning va aholining sog'lig'i holatining umumiy ko'rsatkichi va yosh bolalarning jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlarini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash mezonи sifatida belgilaydi. alohida mintaqa, mamlakat. JSST yosh bolalarning jismoniy rivojlanishi monitoringini amalga oshirilayotgan eng samarali tadbirdan biri deb hisoblaydi tibbiyot xodimlari yosh bolalarda o'lim va kasallanish darajasini pasaytirish. 3 yoshgacha bo'lgan bolaning jismoniy rivojlanishini baholash JSST tomonidan 2006 yilda ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan "O'sish standartlari" asosida amalga oshiriladi. xalqaro standart etnik kelib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va ovqatlanish turidan qat'i nazar, barcha mamlakatlarda bolaning jismoniy rivojlanishi. Yosh bolalarning jismoniy rivojlanishining ushbu me'yorlaridan (standartlaridan) foydalanish kerak:

Tibbiyot xodimlariga: me'yordan chetga chiqish va kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash uchun yosh bolalarning jismoniy rivojlanishini skriningning samarali vositasi sifatida ota-onalarga maslahat berish, zarur bo'lganda, zarur tekshiruv va davolanishni buyurish;

Sog'liqni saqlash tashkilotchilariga: bolaning normal jismoniy rivojlanishi, qo'llab-quvvatlash huquqini amalga oshirishga qaratilgan davlat va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish zarurligini asoslash vositasi sifatida emizish, ta'minlash ratsional ovqatlanish, mavjudligi va sifatini oshirish tibbiy yordam bolalar va onalar;

Ota-onalarga: oilaga tibbiyot mutaxassislari bilan birgalikda bolaning jismoniy rivojlanishini yanada samarali nazorat qilish, ovqatlanish va ovqatlanish bo'yicha tavsiyalarga rioya qilish muhimligi va zarurligini tushunish, o'z vaqtida tibbiy yordam olish imkonini beradigan vosita sifatida.

Jismoniy rivojlanishni baholash har bir majburiy tibbiy muassasada amalga oshiriladi profilaktik tekshiruv bola. Hamshira antropometrik o'lchovlar amalga oshiriladi (tortishish, uzunlik / balandlik va bosh atrofini o'lchash). Olingan ma'lumotlar mos keladigan jismoniy rivojlanish jadvallariga qo'llaniladi, ular o'g'il bolalar va qizlar uchun alohida to'ldiriladi. Bu ma'lum vaqt davomida bolaning jismoniy rivojlanish tendentsiyasini ko'rish va jismoniy rivojlanish muammolarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, bolaning kuzatuv davridagi ko'rsatkichlar dinamikasiga e'tibor qaratish lozim.

Katta yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini baholash ham antropometrik tadqiqotlar natijalari asosida, solishtirish orqali amalga oshiriladi individual ko'rsatkichlar normaga ega bola Buning uchun empirik formulalar bo'yicha taxminiy hisoblash usuli va antropometrik standartlar usulidan foydalaning. Empirik formulalar bo'yicha taxminiy hisob-kitoblar usuli vazn ortishi va o'sishining asosiy naqshlari, bosh va ko'krak aylanalarini bilishga asoslangan. Shuni ta'kidlash kerakki, bu usul faqat bolaning jismoniy rivojlanishining taxminiy rasmini beradi va pediatrlar tomonidan kamdan-kam qo'llaniladi.

Antropometrik standartlar usuli aniqdir, chunki individual antropometrik qiymatlar bolaning yoshi va jinsiga qarab me'yoriy qiymatlar bilan taqqoslanadi. Ikki turdag'i standartlarning mintaqaviy jadvallari mavjud: sigma (parametrik) va sentil (parametrik bo'limgan).

Sigma standartlari usuli. mohiyati bu usul har bir atribut bo'yicha olingan ko'rsatkichlarni turli yoshdagi bolalarning ommaviy antropometrik so'rovlarini asosida ishlab chiqilgan o'rtacha (standart) ma'lumotlar bilan solishtirishdan iborat.

Antropometrik ma'lumotlarni standart ma'lumotlar bilan taqqoslash natijalari har bir xususiyatni alohida baholash imkonini beradi.

Kalla suyagining shaklini aniqlash uchun quyidagi parametrlar o'lchanadi.

Bo'ylama diametr maxsus sirkulda aniqlanadi. Sirkulning bir oyoqchasi glabellaga, ikkinchisi esa – medial-sagittal yuzadagi glabelladan eng uzoqda joylashuvchi, ensa suyagidagi nuqtaga qo'yiladi.

Ko'ndalang o'lcham (boshning eng katta eni) sirkul yordamida bosh yon devorining o'ng va chap taraflaridagi tashqariga eng ko'p bo'rtib turuvchi nuqtalariga qo'yish orqali o'lchanadi. Bu nuqtalar tepe yoki chakka suyagida joylashishi mumkin.

Yuzning morfologik balandligini aniqlash uchun, o'lchashlarni maxsus sirkul yordamida selion nuqtasi-ya'ni qansharning eng chuqr nuqtasidan, to engak nuqtasi ya'ni medial-sagittal yuzadagi daxanning eng pastki nuqtasigacha qo'yish orqali o'lhash mumkin, lekin nazion nuqtasi ya'ni o'rta yuzaning burun-peshona choki bilan kesishish joyidan ham o'lhash mumkin.

Yuzning fizionomik balandligi, shuningdek, maxsus sirkul yordamida trixionni o'lhash-o'rta yuzaning sochning o'sish joyidan to daxangacha o'tkazilgan chiziq bilan kesishish joyida yotuvchi, peshonadagi nuqta orqali aniqlanadi.

Burun soxasini tahlil qilish uchun, burunning balandligi va enini o'lhash zarur: burunning balandligi maxsus sirkul yordamida sellion nuqtasidan to burunosti nuqtasi ya'ni burun to'sig'i pastki qirrasining orqa nuqtasigacha bo'lgan oraliqda, burunning eni esa burun qanotlarining nuqtalari oralig'idagi masofani olhash orqali aniqlanadi.

Ko'z sohasi o'lchamlarini aniqlash uchun tashqi-ko'z kengligi deb ataluvchi, ko'zlarning tashqi burchaklari oralig'idagi masofani, hamda ko'zlarning ichki burchaklari oralig'idagi masofa- ko'zlararo kenglik o'lchanadi.

Boshni yanada chuqurroq tekshirish uchun boshqa o‘lchovlarni o‘tkazish lozim.

Bosh aylanasi santimetrli tasma yordamida o‘lchanib, buning uchun tasmani orqadan ensa qavarig‘ining eng ko‘p bo‘rtib chiqqan nuqtasi orqali, oldindan esa glabella bo‘ylab yoxud qosh usti yoylari bo‘ylab o‘tkaziladi.

Peshonaning ko‘ndalang o‘lchami ham maxsus sirkul yordamida o‘lchanib, buning uchun uni peshona suyagining eng lateral nuqtalariga va bevosita yonoq o‘sintasining orqasiga o‘rnatiladi.

Balandlik yoki vertikal diametr maxsus sirkulda tojsimon va yoysimon choklarning kesishish joyida joylashuvi bregma nuqtasi bilan qulinqing tragusi oralig‘ida o‘lchanadi.

Bosh suyagi asosining o‘lchamlarini aniqlash. Bosh suyagi asosining uzunligi quyidagicha o‘lchanadi: maxsus sirkulning bir oyoqchasini nazioniqa, ya’ni o‘rta yuzaning burun-peshona choki bilan kesishish joyiga, ikkinchi oyoqchasini esa opistion-o‘rta yuzaning katta ensa teshigining orqa qirrasi bilan kesishish joyiga qo‘yiladi.

Bosh suyagi asosining enini, ya’ni chakka suyagining yonoq o‘sintasi negizidagi uning o‘ng va chap tarafdan tashqi eshituv yo‘lining markazidan o‘tuvchi vertikal chiziq bilan kesishish joyidagi masofani maxsus sirkul yordamida o‘lchanib, uning oyoqlari ikki qulqoq nuqtalari oralig‘iga o‘rnatiladi.

Yonoq diametri maxsus sirkul yordamida yuzning eng katta enini, ya’ni yonoq yoyining tashqariga eng ko‘p bo‘rtib turuvchi nuqtalari oralig‘idagi masofani o‘lhash yo‘li bilan aniqlanadi.

Pastki jag‘ diametri maxsus sirkul oyoqchalarini pastki jag‘ning burchagidagi tashqariga eng ko‘p bo‘rtib turuvchi nuqtalariga o‘rnatish yo‘li bilan aniqlanadi.

Tekshirish asboblari (2-jadval)

Kraniometrik ko'rsatkichlarni o'lchash deganda kallaning aylana, bo'ylama va ko'ndalang o'lchamlarini aniqlashni nazarda tutiladi.

Kallaning bo'ylama va ko'ndalang diametrlarini o'lchashda akusherlar tazomeri ishlatildi. Kallaning gorizontal aylanasi santimetrlı tasma yordamida o'lchandi. Kallaning qolgan ko'rsatkichlarini o'lchashda millimetrlı chizg'ich ($L=30$ sm), katta ($L=250$ mm) va kichik ($L=125$ mm) shtangensirkullar hamda turli xil tuzilishdagi o'lchov sirkullaridan foydalanildi (1-rasm).

2- jadval

Tekshirish asboblari va ular to'g'risida ma'lumot

<i>Nº</i>	<i>Asbobning nomi</i>	<i>Seriysi va raqami</i>	<i>Belgilari</i>	<i>Ishlab chiqarilgan joyi</i>
1.	Akusherlar tazomeri	M 61	max.=50 sm ($i=0.5$ sm)	Rossiya
2.	Katta shtangensirkul	F 36573 (35433)	max.=25 sm ($i=0.05$ mm)	Rossiya
3.	Kichik shtangensirkul	N 21181	max.=12,5 sm ($i=0.1$ mm)	Rossiya
4.	Katta millimetrlı chizg'ich	"Rm-kelajak" x/f	max.=30 sm ($i=0.1$ sm)	O'zbekiston
5.	Katta millimetrlı chizg'ich	Swordfish- brand Xiaoniba	max.=30 sm ($i=0.1$ sm)	Xitoy
6.	Kichik millimetrlı chizg'ich	Swordfish- brand Xiaoniba	max.=10 sm ($i=0.1$ sm)	Xitoy

7.	Sirkullar jamlanmasi	Nchk-14-1-01 (Tu 25-03.1998-78)	max.=50 sm (i=0.5 sm)	SSI
8.	Santimetrlı tasma	FIBER-GLASS	max.=50 sm (i=0.5 sm)	Xitoy

1-rasm

Tekshiruv asboblari



a) shtangensirkullar;



b) santimetrlı tasma va chizg'ich



v) akusherlar tazomeri;



g) sirkullar.

Tekshirish jarayoni

Boshning antropometrik ko'rsatkichlarini o'lhashda Speranskiy V.S., Zaychenko A.I. (1980,1988) va Avtandilov G.G. (1990) usullaridan foydalanildi. Ko'rsatkichlarni o'lhash jarayoni bolalar tik turgan holatda amalga oshirildi.

Kraniometrik ko'rsatkichlarni o'lhash jarayonida Marthin R. (1928) tomonidan tavsiya etilgan kraniometrik nuqtalardan foydalanildi.

Chunki Marthin R. ning raqamli belgilarini qo'llash butun dunyo olimlari uchun tushunarli, shuningdek gap qanday belgi to'g'risida ketayotganligi haqida aniq ma'lumot beradi (L.I. Tegako, I.I. Salivon, 1989).

Kallaning turli qismlari orasidagi nisbati asosiy diametrlar o'rtaсидаги муносабатни акс ettiruvchi ko'rsatkichlar bilan taxlil qilinadi. Buning uchun kichik diametrлarning katta diametrлarga nisbati foizlarda hisobланади. (L.I. Tegako, I.I. Salivon, 1989).

Antropometrik tekshiruvni o'tkazish joyida doimiy qulay harorat bo'lishi zarur va tekshiruv o'tkaziladigan xona polining barcha qismi bir xil gorizontal tekislikda bo'lishi kerak (E.G. Martirosov, 1982).

O'quvchilar ustida olib borilgan tekshirishlar 7- va 41-umumta'lim mактабларининг maxsus tibbiy xonalarda o'tkazildi. Tadqiqot o'tkazilgan xonalar tabiiy va sun'iy yorug'lik bilan ta'minlandi.

Antropometrik ko'rsatkichlarni o'lhash uchun eng qulay vaqt bo'lib, ertalab och qoringa yoki ovqatlangandan 2-3 soat keyingi payt hisobланади.

Kunning o'rtaсида одам танасининг узунлиги мускуллар тонусининг susayishi hisobiga 2-4 santimetrga kamayadi (E.G. Martirosov, 1982).

Ilmiy tadqiqotimizga oid kraniometrik tekshirishlarning asosiy qismi ertalab soat 8:00 dan 12:00 gacha o'tkazildi. Maktablardagi ayrim sinflarda o'qish vaqtiga kunning ikkinchi yarmida ekanligini hisobga olib, soat 14:00 dan 16:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida o'tkazildi.

Kraniometrik ko‘rsatkichlar quyidagi tartib asosida o‘rganildi:

Kallaning gorizontal aylanasi – bu glabella(g) bilan opistokranion (op)oralig‘idagi aylana (sirkulyar) chiziq. Ushbu ko‘rsatkich bolani tik turgan holatida santimetrli tasma bilan o‘lchandi.

E.G. Martirosov (1982) ning ta’kidlashicha, santimetrli tasma cho‘ziluvchanligi past bo‘lgan xom-ashyodan tayyorlangan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Aksincha bo‘lgan holatlarda tekshirish natijalarining ishonchlilagini ta’minalash maqsadida tasmani har 50 ta tekshiriluvchidan so‘ng almashtirishni tavsiya etiladi. Kalla suyagini o‘lchashda belgilangan nuqtalar orasidagi masofani metal yoki matodan tayyorlangan tasmada o‘lchash mumkin (A.D. Djagaryan, 1984).

Kalla suyagining yoysimon o‘lchamlarini o‘lchashda odatda metaldan yasalgan tasma ishlataladi. Agar matodan yoki qog‘ozdan yasalgan tasma qo‘llaniladigan bo‘lsa, uning aniqligini metaldan yasalgan tasmaga solishtirish orqali muntazam tekshirib borish lozim (V.P. Alekseev, 1966).

Yuqoridagilarni hisobga olib, tadqiqotni o‘tkazishda har 60 ta tekshiriluvchiga alohida santimetrli tasmadan foydalanildi. Tekshirishning boshidan oxiriga qadar bitta korxonada ishlab chiqarilgan 5 ta santimetrli tasma ishlataldi.

Kallaning bo‘ylama diametri - bu glabella(g) bilan opistokranion (op) orasidagi to‘g‘ri chiziq. Ushbu ko‘rsatkich kallaning eng katta diametri hisoblanadi. Tazomer bilan o‘lchandi.

Kallaning ko‘ndalang diametri - bu ko‘rsatkich chizig‘i sagittal o‘qqa nisbatan perpendikulyar holatda yo‘nalib, miya qutisi yon devorlarining eng bo‘rtib chiqqan nuqtalarini tutashtiradi. Bunda ikkala tomondagi eurion (eu) nuqtalari orasidagi masofa tazomer bilan o‘lchandi (2-rasm).

Ensa kengligi – bu ko‘rsatkichni asterion (ast) nuqtalari orasidagi masofa bo‘lib shtangensirkul bilan o‘lchandi.

Peshona diametri (kengligi) – biz bunda ikkala tomondagi peshona do‘mboqlarining eng turtib chiqqan joylari orasidagi masofani o‘lchadik (3-rasm).

Peshonaning eng keng qismi – peshona suyagi pallasining eng kengaygan qismi, kallaning ikkala tomonidagi stefanion (st) nuqtalari orasidagi masofa. Shtangensirkul yordamida o‘lchandi (4-rasm).

Peshonaning eng tor qismi – bu frontotemporal (ft) nuqtalar orasidagi masofa (5-rasm).

A.D. Djagaryanning ta’kidlashicha bu ko‘rsatkich o‘ng va chap brontopetal nuqtalari oralig‘idagi masofaga teng (1984).

Biz frontotemporal nuqtalar orasidagi to‘g‘ri chiziq hisobiga, shtangensirkul yordamida o‘lchadik.

Ko‘z kosasining kengligi – ushbu ko‘rsatkich ikki xil bo‘ladi: ko‘z kosasining maksillofrontal kengligi va ko‘z kosasining dakrial kengligi (L.I. Tegako, I.I. Salivon, 1989).

Ba’zi tadqiqotchilarning aytishicha (A.D. Djagaryan, 1984), bu ko‘rsatkich zigmolare-ektokonxon nuqtalari orasidagi masofaga teng.

Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun ko‘z kosasining maksillofrontal (mf) nuqtasidan to ko‘z kosasining nashqi qirg‘og‘ining o‘rtasigacha bo‘lgan oraliq masofa kengligini oldik. Bu ko‘rsatkichni shtangensirkul bilan o‘lchadik (6-rasm).

Kraniometriyada chap tomondagi orbitani o‘lhash qabul qilingan (Ya.Ya. Roginskiy, M.G. Levin, 1978). Shuning uchun biz ko‘z kosasiga oid barcha kraniometrik tekshirishlarni chap tomondagi ko‘z kosasida olib borildi.

Ko‘z kosasining balandligi – ko‘z kosasi yuqorigi qirg‘og‘ining o‘rtasidan pastki qirg‘og‘ining o‘rtasigacha bo‘lgan oraliqdagi masofa. Biz bu ko‘rsatkichni shtangensirkul bilan o‘lchadik (7-rasm).

Ko‘z kosasining tashqi kengligi – bu ko‘rsatkich ikkala tomondagi ko‘z kosalarining tashqi (lateral) qirg‘oqlari orasidagi masofaga teng deb oldik (8-rasm).

Ko‘z kosalararo oraliq kenglik – bu ko‘rsatkichni ikkala tomondagi ko‘z kosalarining ichki (medial) qirg‘oqlari orasidagi masofani shtangensirkul yordamida o‘lchab aniqlandi (9-rasm).

Dakrial kenglik – bu ikkala tomondagi dakrion (d) nuqtalari oralig‘idagi masofa. Shtangensirkul yordamida o‘lchadik.

Dakrial balandlik – burun belidan boshlab to dakrion (d) nuqtalarini o‘zaro tutashtiruvchi chiziq markazigacha bo‘lgan masofa (10-rasm).

Burun balandligi – bu nazion (n) va nazospinal (ns) nuqtalar oralig‘idagi masofa. Shtangensirkul yordamida o‘lchadik.

Burun kengligi – bu burun noksimon teshigining tashqi qirg‘oqlari orasidagi eng katta masofa. Burun kengligini burun qanotlarining eng kengaygan joyi tashqi chegaralaridan shtangensirkul yordamida o‘lchandi (11-rasm).

Burun uzunligi – bu orale va stafilion nuqtalar oralig‘idagi masofa. Ushbu ko‘rsatkichni sellindan to burunning uchigacha bo‘lgan masofa hisobiga aniqlandi. Bu ko‘rsatkichni shtangensirkul bilan o‘lchandi.

Yonoq diametri – bu kallaning ikkala tomonidagi yonoq yoylari tashqi yuzalari orasidagi maksimal masofa. Ushbu ko‘rsatkich o‘ng va chap tomonidagi zigion (zy) nuqtalari orasini frontal o‘q yo‘nalishida tazomer bilan o‘lchandi.

Yuzning to‘liq balandligi – bu nazion (n) va gnation (gn) nuqtalari orasidagi masofa. Ushbu ko‘rsatkichni bolalarning yuqorigi va pastki tish qatorlarini me’yoriy jipslashgan holatida shtangensirkul yordamida o‘lchadik.

Yuz yuqori qismining balandligi – nazion (n) va prostion (pr) nuqtalari orasidagi masofa. Bu ko‘rsatkich ham shtangensirkul yordamida o‘lchandi.

Yuzning yuqori kengligi – bu o‘ng va chap tomonlardagi fronto-molyar-temporal (fmt) nuqtalar orasidagi masofa. Shtangensirkul bilan o‘lchandi.

Yuzning o‘rta kengligi – kallaning ikkala tomonidagi zigomolyar (zm) nuqtalari orasidagi masofa. Bu ko‘rsatkich shtangensirkul bilan o‘lchandi.

Yuzning morfologik balandligi – bu ko‘rsatkich odatda nazion (n) va gnation (gn) nuqtalari orasidagi masofa.

Ayrim adabiyotlarda sellion (se) va gnation (gn) nuqtalari orasidagi masofaga teng deb olinadi (L.I. Tegako, I.I. Salivon, 1989). Biz sellion (se) va gnation (gn) nuqtalari oralig‘ini hisobga oldik. Ko‘rsatkichni bolalarda yuqorigi va pastki tish qatorlarini me’yoriy jipslashgan holatida shtangensirkul yordamida o‘lchandi.

Yuzning morfologik balandligi bosh o‘lchamlaridan biri bo‘lib, amaliy tomondan kalla ko‘rsatkichlaridan yuzning to‘liq balandligiga teng.

Yuzning fizionomik balandligi – bu trixiondan gnationgacha bo‘lgan to‘g‘ri chiziqli oraliq (12-rasm).

Pastki jag‘ diametri (bigonal kenglik) – o‘ng va chap tomondagi gonion (go) nuqtalar orasidagi masofa. Biz bunda pastki jag‘ning burchak qismidagi eng turtib chiqqan nuqtalari orasidagi to‘g‘ri chiziqli masofani shtangensirkul yordamida o‘lchadik.

Pastki jag‘ tanasining balandligi – bu gnation (gn) va infradental (id) nuqtalar oralig‘idagi masofa. Ushbu ko‘rsatkich pastki jag‘ markaziy kesuv tishlarining milk so‘rg‘ichi asosidan pastki jag‘ tanasining pastki qirg‘og‘igacha bo‘lgan masofadir. Bu ko‘rsatkichni ham shtangensirkul bilan o‘lchandi.

Pastki jag‘ tanasining uzunligi – gonion (go) va gnation (gn) nuqtalari orasidagi masofaga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichni shtangensirkul bilan o‘lchandi.

Pastki jag‘ shohining uzunligi – tragion (tr) va gonion (gn) nuqtalari orasidagi masofaga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichni shtangensirkul bilan o‘lchadik.

Kraniometriya va kranioskopiya usulidan foydalanib, bosh suyagining aniq tuzilishini aniqlash, ontogenetda inson bosh suyagining rivojlanishini kuzatish va bosh suyagining yoshga bog‘liq xususiyatlarini hisobga olish mumkin.


Turli yoshda bosh suyagining u yoki bu shaklining namoyon bo'lish foizi o'zgarib turadi va erkaklar va ayollarda farqlanadi.

Yangi tug'ilgan o'g'il bolalarda bosh suyagining braximorf va dolixomorf shakli ko'pincha kuzatiladi, yangi tug'ilgan qizlarda esa mezomorf ko'proq namoyon bo'ladi.

Bosh suyagining suyaklarini o'rganish, bosh suyagini yoshi, jinsi va irqi bilan bog'liq holda farqlash, shuningdek, suyaklarni o'lchash va inson bosh suyagi rivojlanishidagi patologik jarayonlarni tashxislash qobiliyati uchun zarurdir.

2-rasm

Kallaning ko'ndalang diametrini o'lchash sohasi




1-kallaning ko'ndalang diametri

Izoh: Ushbu bo'limda keltiriladigan kalla suyagining barcha chizmalari (fotosuratlardan tashqari) Sinelnikov R.D. , Sinelnikov Y.A.R. Atlas anatomii cheloveka 1 tom. - M.: Meditsina, 1996. – dan olindi.

3-rasm



Peshona diametri (kengligi)ni o‘lchash sohasi



1-peshona diametri (kengligi)

4-rasm


Peshonaning eng keng qismini o‘lchash sohasi



1-peshonaning eng keng qismini

5-rasm


Peshonaning eng tor qismini o‘lchash sohasi



1-peshonaning eng tor qismi

6-rasm


Ko‘z kosasining kengligini o‘lchash sohasi



1-ko‘z kosasining kengligi

7-rasm


Ko‘z kosasining balandligini o‘lchash sohasi



1-ko‘z kosasining balandligi

8-rasm


Ko‘z kosasining tashqi kengligini o‘lchash sohasi



1-ko‘z kosasining tashqi kengligi

9-rasm


Ko‘z kosalararo oraliq kenglikni o‘lchash sohasi



1-ko‘z kosalararo oraliq kenglik

10-rasm

Dakrial kenglik va dakrial balandlikni o‘lchash sohasi




1- dakrial balandlik;

2 - dakrial kenglik.

11-rasm

Burun kengligini o‘lchash sohasi



1-burun kengligi

12-rasm

Yuzning morfologik va fizionomik balandliklarini o‘lchash sohasi



Yuzning morfologik balandligi-(chap tomondagi suratda);

Yuzning fizionomik balandligi-(o‘ng tomondagi suratda).

Kraniometriya-(kraniometriya; kranio- + yunoncha metro o'lchovi) bosh suyagini o'lhash usullari to'plami, uning tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganish uchun mo'ljallangan va antropologiyada, sud tibbiyotida, shuningdek, tibbiyotning ayrim sohalarida qo'llaniladi.

Basion - katta ochilishning old chetining o'rtasi.

Opistion - katta ochilishning orqa chetining o'rtasi.

Inion - tashqi oksipital protrusionning o'rtasi.

Bregma - koronal va sagittal choklarning birlashishi.

